



UDK: 37.016:811.111

Guljamol AZIMOVA,

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: guljamolazimova15@gmail.com

PhD, dotsent U. Jabbarov taqrizi asosida

THE ROLE OF AUTHENTIC MATERIALS ADAPTED TO THE LEARNING PROCESS IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS

Annotation

This article presents the author's views on the importance of authentic materials in language teaching, the advantages of adapted authentic materials, and their role in developing speaking skills. It also provides recommendations on the criteria and stages of adapting authentic materials to the learning process.

Key words: authentic materials, speaking skills, communicative approach, task-based approach, integration, adaptation.

РОЛЬ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ, АДАПТИРОВАННЫХ К ПРОЦЕССУ ОБУЧЕНИЯ, В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ

Аннотация

В статье представлены взгляды автора на значение аутентичных материалов в обучении языку, преимущества адаптированных аутентичных материалов и их роль в развитии навыков говорения. Также даны рекомендации по критериям и этапам адаптации аутентичных материалов к учебному процессу.

Ключевые слова: аутентичные материалы, навыки говорения, коммуникативный подход, подход, основанный на задачах, интеграция, адаптация.

O'QUV JARAYONIGA MOSLASHTIRILGAN AUTENTIK MATERIALLARNI NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada autentik materiallarning til ta'limidagi ahamiyati, moslashtirilgan autentik materiallarning afzalliklari hamda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni haqida muallifning fikr-mulohazalari bayon etilgan. Shuningdek, autentik materiallarni o'quv jarayiga moslashtirishning mezonlari va bosqichlari borasida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: autentik materiallar, nutqiy ko'nikmalar, kommunikativ yondashuv, topshiriqqa asoslangan yondashuv, integratsiya, adaptatsiya.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda chet tili ta'limini tubdan isloh qilish, uni xalqaro talablar darajasiga olib chiqishning huquqiy asosini yaratdi [7]. Qarorda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, zamonaviy metodikalar va o'quv-uslubiy majmualar yaratish, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Qolaversa, davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir." Bu so'zlar ilm-fan va ta'limni rivojlantirish millat taraqqiyoti uchun poydevor ekanini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, Prezidentimizning "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni - bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi" degan fikri ham chet tili ta'limida yangi metodlar va innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish zaruriyatini tasdiqlaydi.

Zamonaviy til ta'limida qo'llaniladigan innovatsion yondashuvlar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantirishga qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, o'quv jarayoniga moslashtirilgan autentik materiallardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday materiallar o'quvchini real hayotiy til muhitiga yaqinlashtiradi, ularning muloqotga bo'lgan ishonchini oshiradi

va tilni amaliy kommunikatsiya vositasi sifatida idrok etishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, an'anaviy o'qitish metodlari ko'proq grammatik qoidalar va so'z yodlashga asoslanadi. Moslashtirilgan autentik materiallardan foydalanish esa darsni hayotiy kontekstga yaqinlashtirib, o'quvchilarning tilga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va faol muloqotga undaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet tili ta'limi metodikasida autentik materiallardan foydalanish masalasi so'nggi yillarda jahon tilshunosligida keng tadqiq qilinmoqda. Gilmore [2, 98-101-b] autentik materiallarni "real kommunikatsiya uchun yaratilgan, o'quv jarayoniga mo'ljallanmagan" matn va audio-videolar sifatida ta'riflab, ularning o'quvchini tabiiy til muhitiga yaqinlashtirishini ta'kidlaydi.

Mashxur ingliz metodistlaridan biri bo'lgan Peacock o'z tadqiqotlarida autentik materiallarning talabalarda ichki motivatsiyaga ta'sirini o'rganadi. Autentik materiallar turlarining ko'pligi hamda real nutqiy vaziyatlarni tashkil etishi til o'rganuvchida ularga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Talaba o'z o'rganish uslubiga mos bo'lgan materiallar asosida ingliz tilini o'rganar ekan unda o'sha tilni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoq oshadi.

Biroq Tomlinson [6, 34-36-b] autentik materiallarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash har doim ham samarali emasligini qayd etadi. Uning fikricha, materiallarning murakkabligi va

uzunligi o'quvchilarning til darajasiga mos kelmasligi natijasida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois ularni soddalashtirish, ya'ni adaptatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Til o'qitishning kommunikativ yondashuvi nazariy asoslari bo'yicha Richards [5, 52-59-b] yondashuvda autentik materiallar asosiy manba ekanini, ular o'quvchini real muloqot vaziyatiga jalb qilishini ta'kidlaydi. Nunan [3, 17-20-b] tomonidan ishlab chiqilgan vazifaga asoslangan yondashuvi esa topshiriqlar asosida til o'rgatishni ilgari surib, real hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi materiallardan foydalanishni asosiy shart sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuvlar asosini moslashtirilgan autentik materiallar tashkil etadi. Har ikkala yondashuv ham tilni tabiiy muhitda qo'llanishini ta'minlash uchun yaratilgan bo'lib, bu borada autentik materiallar real nutqiy vaziyatlar yaratib berishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, so'nggi yillarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda lingvistik bilimlar bilan bir qatorda madaniy bilimlarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni shu jihatdan, raqamli ta'lim texnologiyalari, onlayn platformalar va podkastlar autentik material manbai sifatida keng qo'llanilmoqda. Byram internetdagi autentik materiallarning nafaqat til o'rganishga, balki madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga ham xizmat qilishini qayd etadi. [1, 89-92-b]

Autentik materiallar til o'rganuvchining bilimiga moslashtirilishi, ammo uning darajasiga nisbatan bir pog'ona murakkablikni saqlashi lozim. O'quv jarayoniga moslashtirilgan autentik materiallardan foydalanish mashg'ulotlarda real hayot muhitini yaratishga xizmat qiladi. Qolaversa talabaning til o'rganishga bo'lgan ichki turtkisini oshiradi, lisoniy bilimlar, mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Autentik materiallar orasida bosma matnlar keng uchraydi. Autentik matnlarni ham o'quv mashg'ulotlariga moslashtirish mumkin. Moslashtirilish darajasiga ko'ra ular quyidagi turlarga bo'linadi:

- yarim autentik matnlar;
- qisman tahrir qilingan autentik matnlar;
- o'quv-autentik materiallar [7, 213-b]

O'quv jarayoniga moslashtirilgan autentik materiallar dars mashg'ulotlarida qo'llash uchun integrativ yondashuvlardan keng qo'llaniladi. Xususan, kommunikativ til o'qitish yondashuv (CLT), vazifaga asoslangan yondashuv (TBLT) asosida rolli o'yinlar, muammoli vaziyat, muhokamalar, loyihalar kabi topshiriqlar samarador hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda o'quvchining faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlanishini birinchi o'ringa qo'yadi. Qolaversa, ushbu yondashuvlar til o'rganuvchining nutqiy ko'nikmalarini integratsiya orqali rivojlantirishga qaratiladi. Differensial usuldan farqli ravishda, integratsiyada talabaning gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalari birga rivojlantiriladi.

Metodologiyani nazariy asoslari Krashenning "Input Hypothesis" nazariyasi bilan hamohang bo'lib, bunda o'quvchiga "i+1" darajada - ya'ni biroz murakkabroq, ammo tushunarli tildagi material berilishi zarurligi ta'kidlanadi. Adaptatsiyalashgan autentik materiallar aynan shu tamoyilga mos keladi: ular tabiiylikni saqlagan holda o'quvchilar darajasiga moslashtiriladi.

Metodologik yondashuvning yana bir muhim jihati - o'quv jarayoniga integratsiya qilinadigan materiallar tanlashda tizimli yondashuvni qo'llashdir. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Material tanlash mezonlarini belgilash - mazmuniy dolzarblik, lingvistik murakkablik, o'quvchilarning yosh va darajasiga moslik.
2. Materialni qayta ishlash (adaptatsiya qilish) - matnni soddalashtirish, leksik va grammatik elementlarni darajaga moslashtirish, vizual va audiovizual yordamchi vositalar bilan boyitish.
3. Pedagogik integratsiya - tanlangan materialni darsning maqsadi va natijalariga bog'lash, uni kommunikativ topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish.



2-rasm

O'quv jarayoniga integratsiya qilinadigan materiallar tanlashda tizimli yondashuv

Tadqiqot metodologiyasi. O'quv jarayoniga moslashtirilgan autentik materiallardan foydalanishning nazariy asoslarini CLT va TBLT yondashuvlari tashkil etadi. Bu yondashuvlar o'quvchining shaxsiy faolligini oshirish, uni dars jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish hamda nutqiy ko'nikmalarni real kommunikativ vaziyatlarda rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Metodologiya Krashenning "Input Hypothesis" nazariyasiga tayanib, o'quvchiga tushunarli, ammo biroz murakkabroq ("i+1" darajali) til kirishlarini taqdim etish zarurligini asoslaydi. Shu bois, maqola doirasida tanlangan materiallar nafaqat tabiiylikni, balki o'quvchining qabul qilish imkoniyatlarini ham hisobga olgan holda qayta ishlangan.

Autentik materiallarni moslashtirish uchun avvalo talabalarning daraja, bilimlarini mavjud holatini aniqlab olinadi. Buning uchun CEFR talablari asosida til ko'nikmalarini baholab olish zarur. Ma'lumki, CEFR til bilish

darajalarini uchga bo'ladi. Til bilish darajasining eng quyi pog'onasi sifatida A1 daraja olinsa, eng yuqori va mukammal daraja sifatida C1 va C2 darajalari e'tirof etiladi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari bakalavrdax taxsil olish vaqtida minimal B2 darajaga ega bo'lishlari lozim. Bakalavr darajani tugallash arafasida esa C1 darajaga ega bo'lishlari talab etiladi. Ayni shu jihatlarni tahlil qilish orqali talabalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yuqoridagi mezonlarga alohida e'tibor berish zarur. Input nazariyasiga ko'ra, beriladigan bilim mavjud bilimdan bir pog'ona balandroq bo'lmog'i zarur. Buning sababi shundaki, B2 darajadagi talabaga aynan o'zida mavjud bo'lgan bilimlarni qamrab oluvchi, takrorlanish hosil qiluvchi xuddi shu darajadagi materiallarni o'rgatish rivojlanish olib kelmaydi. Bu vaziyatda C1 darajadagi materiallar o'quv jarayoniga moslashtirilgan holda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqotning nazariy dizayni sifatida tahliliy, qiyosiy va umumlashtiruvchi yondashuvlar tanlandi. Mavzuga oid

ilmiy adabiyotlar keng qamrovda o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari tizimlashtirildi va tanqidiy tahlil qilindi. Bu jarayon tadqiqotning ilmiy yangiligini ta'minlash, mavjud metodik bo'shliqlarni aniqlash va ularni to'ldirishga qaratilgan nazariy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi. Shuningdek, metodologiyada tizimlilik va uzluksizlik tamoyillariga qat'iy rioya qilinib, o'quv jarayoniga moslashtirilgan autentik materiallar tanlash, qayta ishlash va darsga integratsiya qilishning yagona konseptual modeli ishlab chiqildi.

Mazkur metodologiyada material tanlash jarayoni o'quv dasturiga mos mavzularni aniqlashdan boshlanadi. Tanlangan manbalar dolzarbligi, lingvistik murakkabligi va o'quvchilarning yosh hamda kognitiv xususiyatlariga mosligi bo'yicha baholanadi. Keyingi bosqichda materiallar lingvistik va uslubiy jihatdan adaptatsiya qilinadi: murakkab iboralar soddalashtiriladi, qo'shimcha izohlar va tushuntirishlar beriladi, zarur joylarda vizual va audiovizual vositalar bilan boyitiladi. Shu tariqa material tabiiylikni saqlagan holda o'quvchilarga qiyinchiliksiz qabul qilinadigan darajaga keltiriladi.

Material tayyor bo'lgach, u dars ishlanmasiga integratsiya qilinadi va maqsadli nutqiy faoliyat turlariga moslashtiriladi. O'quvchilar material ustida ishlash jarayonida avvalo uni idrok etadi, keyin muhokama qiladi va o'z nutqida qo'llaydi. Bu jarayon bosqichma-bosqich idrok, tahlil va ijodiy qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Dars yakunida o'qituvchi xulosalar chiqaradi, asosiy iboralar va nutqiy modellarga e'tibor qaratadi hamda o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun qo'shimcha topshiriqlar beradi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi qismida moslashtirilgan autentik materiallar vositasida o'quv jarayonini sifat jihatdan takomillashtirishga qaratilgan nazariy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqildi. Bu yondashuv o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni, uning nutqiy faolligini oshirishni va o'z fikrini mustaqil ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayoniga moslashtirilgan autentik materiallar nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda o'ziga xos o'rin tutadi va chet tili o'qitishning samarali vositasiga aylanadi. Bunday materiallar talabalarda kommunikativ motivatsiyani oshiradi, darsni hayotiy voqealik bilan bog'laydi, tilni faqat nazariy fan sifatida emas, balki amaliy muloqot vositasi sifatida idrok etishga yordam beradi. O'quvchi real hayotiy matnlar, audio va video kontent bilan

ishlash jarayonida tilning tabiiy oqimini his qiladi, uning ritmiga va leksik-grammatik xususiyatlariga moslashadi. Bu esa nutqdagi ravonlik, grammatik to'g'rilik va so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, autentik materiallardan foydalanish nafaqat til kompetensiyasini, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi. O'quvchilar matnlarda aks etgan ijtimoiy, madaniy axborotlarni qabul qilishadi, til sohiblarining madaniyatiga nisbatan tolerantlik fazilatini shakllantiradi. Ayni shu jihatdan, o'quv jarayoniga moslashtirilgan autentik materiallar global fikrlashga ega mutaxassislarini tayyorlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib moslashtirilgan autentik materiallarni amaliyotda qo'llash uchun bir qator tavsiyalar berildi. Birinchidan, autentik materiallar muntazam ravishda dars jarayoniga kiritilishi lozim, bu ularning ta'sirini uzluksiz va tizimli qiladi. Ikkinchidan, tanlangan materiallar o'quvchilarning yosh va til darajasiga mos ravishda adaptatsiya qilinishi zarur: matn va audio materiallar haddan tashqari murakkab bo'lmasligi, lekin o'quvchida yangi bilimga qiziqish uyg'otishi kerak. Uchinchidan, autentik materiallar kommunikativ topshiriqlar bilan uyg'unlashtirilgan bo'lishi, o'quvchilarni faol muloqotga undaydigan muhit yaratishi maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, o'quvchilarni mustaqil ravishda autentik manbalarni izlashga, o'qish va tinglashga rag'batlantirish, ularning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash zarur.

Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan izlanishlarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ijtimoiy tarmoq kontentlarini autentik material sifatida qo'llash yuzasidan kengroq tahlillar olib borilishi mumkin deb hisoblaymiz. Bunda asosiy e'tiborni talabalarining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim. Shuningdek, talabalarining avtonomlik asosida til o'rganishlarida raqamli texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ham alohida tadqiq etilishi zarur. Bu boradagi ishlar chet tillarini yaxshi o'zlashtirgan raqobatdosh kadrlarni yetkazib berishda muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa, maqolada ilgari surilgan nazariy qarashlar va tavsiyalar o'quv jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga, talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga va zamonaviy metodik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. – 2nd ed. – Bristol: Multilingual Matters, 2021. – P. 89–92.
2. Gilmore A. Authentic materials and authenticity in foreign language learning // Language Teaching. – 2007. – Vol. 40, № 2. – P. 97–118.
3. Nunan D. Task-based language teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – P. 17–20.
4. Peacock M. The effect of authentic materials on the motivation of EFL learners // ELT Journal. – 1997. – Vol. 51, № 2. – P. 144–156.
5. Richards J. C. Communicative language teaching today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – P. 52–59.
6. Tomlinson B. Materials development in language teaching. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – P. 34–36.
7. Widdowson H.G. Aspects of Language Teaching. — Oxford: Oxford University Press, 1990. — 213 p.
8. PQ-5117-сон 19.05.2021. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida <https://share.google/I9SVLKCY2JGoprNk2>.